

ATROF MUHIT STRATEGIYASI, SOGLIQNI SAQLASH VA YASHIL IQTISODIYOT INTEGRATSIYASI - BARQAROR KELAJAK ASOSI

*Isroilov Sardorbek Samandar o'g'li,
isardorbek846@gmail.com,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

Bugungi kunda aholi salomatligini saqlash kabi vazifalar davlatimiz tomonidan ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda va bunga doir bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin aholi salomatligiga bevosita xavf tug'diradigan omillar ham borgan sari oshib bormoqda. Mana shunday og'ir va murakkab muammolardan biri bu atrof muhit ifloslanishi va buning oqibatida ekologik balansning buzilishi hisoblanadi. Natijada bu muammo butun insoniyat uchun global muammoga aylanib ulgurdi va vaqtida hal qilinmasa yoki zararli oqibatlari bartaraf etilmasa insonlar orasida turli xil kasalliklarga sabab bo'lishi va hattoki o'lim holatlariga olib kelishi ko'rinmoqda. Ekologiyaning buzilishiga sabab sifatida davlatlar iqtisodiyotining zamon talablariga moslashmasdan hali ham eskicha tizimida faoliyat olib borayotganligi ko'rsatiladi.

Ekologik muammolar shakllanishiga ham ma'lum bir muddat kerak bo'lgan ya'ni muayyan bir davr mobaynida insonlar tomonidan tabiatga keltirilgan zararlar oqibatida bizning ekologiyamiz buzilib ketdi. Shuningdek, bu muammoning vujudga kelishiga shuningdek tabiiy omillar ham ta'sir ko'rsatgan. Masalan Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining qisqarishi tufayli mintaqa og'ir ahvolda qolmoqda va mintaqada kun sayin cho'llanish xavfi total ravishda ortib bormoqda. Bu muammoni hal qilish uchun birinchi navbatda tabiatga bo'lgan munosabatni o'zgartirishimiz kerak. Mamlakatimiz bo'yicha yashil makon dasturlari salmog'ini oshirib respublikamizning barcha hududlarini yashillashtirishga harakat qilsak bu muammoning zararli oqibatlari ma'lum bir miqdorda kamayadi. Ya'na bir masala toza kislorod manbaasi bo'lgan daraxtlarning kesilishiga ham juda qattiq turishimiz kerak va joiz bo'lsa bunday harakatlar uchun jazo choralarini kuchaytirishimiz kerak, mana shundagina jamoatchilik fikrini ma'lum bir ma'noda o'zgartirishga erisha olamiz. Shuningdek, energiya manbaalarining ham yashillarini (ekologik zararsiz) joriy qilish va salmog'ini oshirish ham yechim sifatida qaralishi mumkin. Shamol va quyosh energiyalari tarmog'ini kengaytirish uchun mamlakatimizda yetarli potensial mavjud. Shu maqsadda O'zbekistonda 2023-yil yakunlariga kelib Issiqlik elektr stansiyalari va markazlarida umumiy quvvati 9,5 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalari o'rnatildi¹. Shamol elektr energiyasi eng ekologik toza hisoblangan energiya manbaasi bo'la oladi chunki u qayta tiklanuvchi, arzon, intensiv va tabiiy ravishda energiyani ishlab chiqarib tabiatga umuman zarar yetqazmaydi².

Birlashgan Arab Amirlikliklarining Masdar kompaniyasi tomonidan 2023-yilning yakunida Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 500 MVt quvvatli shamol elektr stansiyasini qurish loyihasi doirasida Goldwind (Xitoy) kompaniyasining birinchi turbinasi o'rnatildi³. Eng asosiysi, insonlarning atrof muhitga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishimiz kerak chunki tabiatga to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazish holatlari birinchi navbatda insonlar tomonidan sodir etiladi. Bunday jarayonda davlat va ekofaol aholi qatlami muhim figura bo'ladi chunki o'zaro hamkorlik qilib tabiatni asrash, yashillikni saqlab qolishga qaratilgan tadbirlarda ekofaol yoshlar davlatga yordam beradi.

Aholi salomatligini saqlashda ham ekologiyaning o'rni juda muhim hisoblanadi chunki tabiat bilan insoniyat har tomonlama chambarchas bog'langan. Atrof muhitning sifati buzilsa insonlarda turli xil nafas olishga xalaqit beradigan kasalliklar vujudga kela boshlaydi va bu holat

¹ <https://minenergy.uz/uz/news/view/3355>

² <https://uz.techconfronts.com/17162206-wind-power-plants-types-designs-advantages>

³ <https://kun.uz/news/2023/06/02/ozbekistonda-ilk-yirik-quvvatli-shamol-turbinasi-ornatildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F06%2F02%2Fozbekistonda-ilk-yirik-quvvatli-shamol-turbinasi-ornatildi&ysclid=ltmphz3zar835728826>

uzoq davom etsa og'ir oqibatlariga olib keladi. Mamlakat iqtisodiyoti yashil iqtisodiyotga integratsiyalashmagan bo'lsa sanoat chiqindilari bevosita atrof muhitga chiqarib yuboriladi va chuchuk suv, havo tarkibi bevosita zaharli moddalar chiqarib yuboriladi. Bunday makonda yashagan aholida o'z-o'zidan oshqozon-ichak kasalliklari ko'payib ketadi. Har bir davlat uchun ustuvor vazifalardan biri bu aholi uchun zarur bo'lgan istemol tovarlarini ishlab chiqarish toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hisoblangan. Agar atrof muhit yomonlashadigan bo'lsa oziq-ovqat mahsulotlari sifati yomonlashadi natijada shu holat ham aholi salomatligining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Davlat shu ehtimoliy kasalliklarning oldini olish maqsadida ijtimoiy himoya dasturlari doirasida ommaviy emlashlarni amalga oshiradi⁴.

Iqtisodiyotni yashil iqtisodiyotga transformatsiya qilishga doir ustuvor vazifalar. 21-asrda har bir mamlakat uchun asosiy vazifa bu-iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hisoblanadi. Lekin ayrim mamlakatlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilmasdan harakatga keltiryapti va bu holat ko'plab holatlarda zararli oqibatlariga olib kelayotganlogini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi tomon esa o'z iqtisodiyotlariga yangi tushuncha "Yashil sanoat, iqtisodiyot" kabi tushunchalarni olib kirayaptilar va shu asosida o'zlariga ustuvor vazifalarni belgilab olmoqdalar. Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun qanday vazifalarni amalga oshirishimiz kerak?

Birinchidan, sanoatda yashil energiya manbaalaridan foydalanishga o'tishimiz kerak. Chunki hozir kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotlari tabiatga zarar keltirish xavfi juda kam bo'lgan qurilmalarni o'z sanoatlariga joriy qilib bo'ldilar. Biz ham asta sekin mana shunday vositalarni o'z sanoatimizga moslashtirib borishimiz kerak.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi manbaalar ishlab chiqarishimiz, chiqindilarni atrof muhitga chiqarib yubormasdan bevosita qayta ishlab chiqarishga moslashtirishimiz kerak chunki turli xil plastik va boshqa shu turdagi mahsulotlar atrof muhitga chiqarib yuborilgani bilan baribir chirimaydi, natijada ekologiya yana zaharlanadi. Uchinchidan, mamlakat avtomobil sanoatini ham ekologik toza bo'lgan avtomobillar ishlab chiqarishga o'tqazish kerak. Chunki atrof muhitni zaharlayadigan narsalarning akasariyati biz foydalanadigan ekologik zararli avtomobillar hisoblanadi. Ko'rib turganimizdek mamlakat ekologiyasining qay darajada sifatli bo'lishida undagi ishlab chiqarish jarayonlarning qay darajada tashkil qilinganligi ham muhim rol o'ynaydi.

Insonlarning atrof muhitga bo'lgan nodo'stona munosabati, ekologik sifatli hisoblanmaydigan avtomobillarning ko'payib ketganligi, sanoatdan chiqadigan zararli gazlar, iqlim o'zgarishi natijasida mamlakatimiz poytaxti havosi sifati 2024-yilning boshida har qachongidan ham yomonlashib ketdi⁵. Tekshirib ko'rilganda havo tarkibida JSST tomonidan belgilangangan miqdordan deyarli 10-15 barobar ortiq zararli chang, gaz miqdori aniqlandi va bu insoniyat salomatligi uchun juda zararli hisoblanadi⁶. Ko'rib turibmizki atrof muhit ekologiyasi va iqtisodiyot bir-biriga juda bog'liq tushunchalar. Agar ularning ikkalasiga ham ehtiyotkorona munosabatda bo'linmasa og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin va bizning kelajagimiz xavf ostida qoladi.

IQLIM O'ZGARISHLARI- INSONIYAT OLDIDAGI ENG KATTA TAXDID

Kuramatova Shahlo, Rustamova Fotimaxon

8496.xash@gmail.com

Central Asian Medical University

Mavzuning dolzarbligi. Iqlim o'zgarishi muammosi yildan-yilga dolzarblashib bormoqda. XIX asrda olimlar ayrim gazlarning Yerdan chiqadigan issiqlikni ushlab turishini va ularning yordamisiz bu issiqlik koinotga chiqib ketishini aniqlashdi. Bu jarayonda asosiy rol

⁴ <https://xs.uz/uz/post/yuqumli-kasalliklarga-qarshi-profilaktik-emlashlar-bilan-qamrab-olish-darazhasi-95-98-foizni-tashkil-etadi-nurmat-otabekov>

⁵ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/09/ecology/>

⁶ <https://www.who.int/tools/air-quality-standards>